



THE ROLE OF ECOTOURISM IN PROTECTING THE LANDSCAPES OF THE AYDAR-ARNASOY LAKE SYSTEM

Mashrab Rustamovich Usmanov

PhD

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: mashrabusmonov79@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "World Tourism Organization", natural resources, lake ecotourism, natural landscapes, landscape protection, reserve, Ramsar Convention, ecological tourism.

Abstract: this article provides information about the role of ecological tourism in the protection of landscapes of the Aydar-Arnasoy lake system. details are covered. The ecotourism potential of the lake is also highlighted.

Received: 23.09.23

Accepted: 25.09.23

Published: 27.09.23

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI LANDSHAFTLARINI MUHOFAZA QILISHDA EKOTURIZMNING TUTGAN O‘RNI

Mashrab Rustamovich Usmanov

PhD

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

E-mail: mashrabusmonov79@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Butunjahon turistik tashkiloti”, tabiiy resurslar, ko‘l ekoturizmi, tabiiy landshaftlar, landshaftlarni muhofaza qilish, qo‘riqxonalar, Ramsar konvensiyasi, ekologik turizm.

Annotatsiya: mazkur maqolada Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi landshaftlarni muhofaza qilishda ekologik turizmning o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, unda Aydar-Arnasoy ko‘lining noyob landshaftlarini o‘rganish va ko‘l ekoturizmi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar yoritilgan. Shuningdek, ko‘lning ekoturistik imkoniyatlari yoritib o‘tilgan.

РОЛЬ ЭКОТУРИЗМА В ОХРАНЕ ЛАНДШАФТОВ СИСТЕМЫ ОЗЕР АЙДАР-АРНАСОЙ**Маишраб Рустамович Усманов***PhD**Джиззакский государственный педагогический университет**Джиззак, Узбекистан**E-mail: mashrabusmonov79@gmail.com***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: «Всемирная туристская организация», природные ресурсы, озерный экотуризм, ландшафты, охрана заповедник, Рамсарская экологический туризм.	природные ландшафтов, конвенция,	Аннотация: в данной статье представлена информация о роли экологического туризма в охране ландшафтов Айдар-Арнасойской озерной системы. Также подчеркивается экотуристический потенциал озера.
---	----------------------------------	---

KIRISH

Jahonda ekologik turizmning yoki ekoturizm atamasining kelib chiqishi XX asrning soʻnggi choragida insoniyat jamiyati oldida global ekologik muammolarning kuchayib ketganligi hisoblanadi. Bu davrda insoniyatning tabiiy atrof-muhitga, tabiiy resurslarga salbiy taʼsiri kuchayganligi natijasida ekologik inqiroz sayyoraviy hududlarda insoniyatning kelgusida yashab qolishini ogʻirlashtirishini xalqaro miqyosda kun tartibiga qoʻydi. Shu oʻrinda tabiat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar hozirga kelib qanday darajalarga kelib qolganligi haqida qisqacha toʻxtalish zarurati bor. Ikkinchidan, oʻtgan asrning 70-yillariga kelib AQSH, Kanada va Yevropa davlatlarida ommaviy turizmning keskin rivojlanishi ham nafaqat tabiiy resurslar inqirozini kuchaytirdi balki, ijtimoiy-madaniy resurslarning butun saqlanishiga xavf sola boshladi [1; P. 204.].

Maʼlumki, tabiat va jamiyatning oʻzaro aloqasi jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda, tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish asosiy masalalardan biri boʻlib hisoblanadi. Landshaftlarni muhofaza qilishda uning har bir komponenti eʼtiborga olish lozim. Globallashuv davrida tabiatni, tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish uchun yangicha yoʻnalishlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri ekoturizm yoki ekologik turizmdir. Ekologik turizmga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy komponentlarni muhofaza qilish, ularni saqlash, koʻpaytirishga qaratilgan turistik yoʻnalishlaridan biri deb qaraladi [4;1-23]. Uning mazmuni va mohiyatini birinchi boʻlib meksikalik ekolog-iqtisotchi Hector Ceballos Lascurain “Ekoturizm – bu tabiatga xushyor munosabatlar, tanishish quvonchini birlashtiruvchi va flora, fauna namunalarini oʻrganishga, himoya qilishga yordam berish imkoniyatlariga asoslangan turistik faoliyatdir” deb taʼrif bergan [7; 24].

Aksariyat ilmiy tadqiqotchilarning ishlari koʻproq ekoturistik marketing, menejment, taʼlim va tarbiyaga bagʻishlangan boʻlib, ularda tabiiy turizm bilan ekoturizm oʻrtasida aniq bir chegara

o'rnatilmagan [5;75-88]. O'zbekistonda ham hali ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlarini to'liq o'rganilmagan [8;23]. Ushbu ishida geografik ob'ektni alohida ekoturistik ob'ekt sifatida ajratib olib, uni ko'l ekoturizmi deb nomlab, unga ta'rif berilgan. Chunki, har bir ekoturistik ob'ektni geografik nuqtai nazarda baholash aniq natijani beradi. Natijada, o'sha hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun imkoniyat bor yo'qligini aniqlashga yordam beradi. Aks holda, ekoturizm yoki ekologik turizm shunchaki mavhum tushunchaligicha qolaveradi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot ob'ekti bo'lib Aydar- Arnasoy ko'llar tizimi va uning noyob landshaftlari bo'lib, ularni muhofaza qilishda ekologik turizm yo'nalishidan samarali foydalanish masalalari o'rganiladi. Shuning uchun tadqiqot ob'ektiga qarab ekoturizmni mazmuni va mohiyati ham qisman o'zgaradi. Biz quyidagi ko'l ekoturizmini tadqiqot predmeti sifatida qarab uni o'rganishni maqsad qildik. Demak, ko'l ekoturizmi bu-ko'l sohil bo'yida dam olish, ekzotik tabiiy komponentlarini tomosha qilish, sog'lomlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazish, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, ko'l fauna va florasini muhofaza qilish, saqlash, ko'paytirishga ko'maklashish hamda tabiatni muhofaza qilish dasturlari me'yorlariga rioya qilgan holda turistik faoliyatni olib borishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-fevraldagi PQ-141-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash, shuningdek, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidan samarali foydalanish, ekologik holatni yaxshilash, aholining baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hududda hayvonot va o'simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, turizm salohiyatidan tizimli foydalanishni tashkil etish to'g'risidagi qarorlari bu hududda ekoturizmni yanada rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Ushbu muammolarni yechimini topishda, eng avvalo, hududni tabiiy sharoiti, noyob va kamyob landshaftlari o'rganiladi. Ulardagi biologik resurslar va rekreatsiya imkoniyatlari baholanadi.

Shuningdek, Ko'llar tizimida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- Ko'llar tizimining "Tuzkon" ko'li qirg'og'i bo'ylab velosiped, kvadrotsikl, ot va tuyada sayr qilish hududlarini tashkil qilish.
- Ko'llar tizimining turistik salohiyatini ko'rsatuvchi targ'ibot materiallari asosida xorijiy davlatlarda tashkil qilinadigan turistik va boshqa tadbirlarda taqdimotlar o'tkazish.
- Ko'llar hududida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish.
- Ko'llar tizimi atrofida 2 km masofa kengligida chorvachilik bilan shug'ullanishga moratoriy o'rnatish.
- Ko'llar tizimi atrofida turistik zonalar tashkil etib, suv akvatoriyasi hududlarini birlashtirish.

Umuman olganda, landshaftlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish quyidagi yoʻnalishlarda olib boriladi;

- Landshaftlarni tabiiy holda saqlash. Landshaftlar tabiiy holda jamiyatning ehtiyojlariga qoniqarli javob bera oladigan boʻlsa, demak uni tabiiy holda saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tabiiy landshaftlar qoʻriqxonalar, milliy bogʻlar shaklida xoʻjalikdan ajratilgan holda saqlanadi va muhofaza qilinadi.

- Landshaft komponentlari va ularning elementlari orasidagi oʻzaro aloqalarni buzmasdan, cheklangan holda ekstensiv foydalanish. Bunday landshaftlarda asosiy eʼtibor profilaktika, sanitariya tadbirlarini amalga oshirishga, oʻsimlik va hayvonot olamining koʻpayishiga, suv sifatini va rejimini yaxshilashga, tabiatning goʻzalligi va musaffoligini saqlab qolishga qaratiladi [10;84].

Lekin, bu yoʻnalishlar tabiiy landshaftlar va ularning boyliklaridan oqilona foydalanishning asosiy yoʻnalishi boʻla olmaydi. Chunki, landshaftlarni jamiyatdan uzoqroq, ajratib muhofaza qilib boʻlmaydi.

Landshaftlarni bugungi kunda saqlash va koʻpaytirishda hamda undan oqilona foydalanishda ekoturizm yoʻnalishidan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi [2;27-30].

Maʼlumki, Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi geografik jihatdan Navoiy viloyatining Nurota tumani va katta qismi Jizzax viloyatining Forish tumanlari hududlarida joylashgan. Birgina, Jizzax viloyatining oʻzida jami, 427 ta turistik manzillar mavjud boʻlib, bularning barchasini ekoturistik nuqtai nazardan qayta koʻrib chiqish, oʻrganish, tadqiq etish va dasturlarini ishlab chiqish haligacha dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Shunday ekoturistik manzillardan eng yirigi sifatida Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi kiritilgan. Bu koʻl nafaqat viloyatlardagi, shu bilan birga Oʻzbekistondagi eng yirik koʻl ekoturistik manzillardan biri hisoblanadi. Koʻlning maydoni qarib 4000 km² ga teng boʻlib, Aydar, Tuzkon va Arnasoy koʻllari kirib, irrigatsion-tashlama suvlaridan hosil boʻlgan koʻl sanaladi. Koʻl Sharqiy Qizilqum, janubi-sharqiy tomoni Mirzachoʻl, janubiy qismi Nurota togʻ tizmasi bilan chegaradosh boʻlgan, koʻl-choʻl-togʻ uchligining oʻziga xos tabiiy sharoitini yuzaga keltiradi. Bunday tabiiy sharoit Aydar-Arnasoy koʻllari tizimi uchun juda katta ekoturistik, rekreatsion imkoniyatlarni va resurslarni hosil qiladi [3;99-102]. Koʻlda ekologik turizmini rivojlanishiga taʼsir koʻrsatuvchi quyidagi tabiiy komponentlarni va turistik potentsiallarini tahlil qilish mumkin.

Xususan, Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi juda katta biologik resurslarga boy. Koʻlda baliq yetishtirish, baliq ovlash yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Bu yerda baliqlarning 22 turi mavjud, ulardan faqat 13 turi mahalliy hisoblanadi. 1960 yillarda Oʻzbekistonda baliqlardan xalq xoʻjaligida foydalanish uchun iqlimlashtirish ishlari olib borilganda Aydar botigʻining kichik-kichik koʻllarida va Tuzkon koʻlida qimmatli ovlanadigan oq doʻngpeshona va oq amur baliq turlari koʻl

iqlimiga moslashtirilgan. Baliqlarning 14 turi (laqqa, zog'orabaliq, oqcha, oqqayroq va boshqalar) qimmatli ovchilik ahamiyatiga ega. Ulardan bir turi- Turkiston usachi – (*Barbus capito* ssp. *conocephalus* Kessler) O'zbekiston "Qizil Kitob"ga kiritilgan.

Ko'lda safari ekotur yo'nalishlarida ham faoliyat olib borilmoqda. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofida va Sharqiy Qizilqumning janubi-g'arbida hayvonlarning 39 turi va 6 ta turkumi uchraydi. Ulardan 2 turi (ondatra va nutriya) ko'l atrofi sharoitlariga moslashtirilgan. Ko'l atrofida yashaydigan hayvonlarning 7 turi xalqaro "Qizil Kitobi" ga va 4 turi O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan [9].

Ko'l ornitologik ekotur yo'nalishi bo'yicha barcha imkoniyatlarga ega, lekin ulardan oqilona foydalanish talab darajasida emas. Chunki, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi noyob qushlarning qo'nim topadigan va bolalaydigan maskanidir. Ko'l sohillarida 14 turkumga mansub 220 tur qushlarni uchratish mumkin [10]. Bu yerda ko'proq umumbashariy havf ostida turgan jingalak saqoqush (*Pelecanus crispus*), oqboshli o'rdak (*Oxyura leucocephala*), ola qanotli o'rdak (*Aythya nyroca*), qironqora (*Aquila heliaca*), uzun quyruq suv burguti (*Haliaeetus leucoryphus*), tasqara (*Aegypius monachus*), yo'rg'a tuvaloq (*Chlamydotis undulata*) uchraydi. Ko'l atrofidagi cho'llarda esa qushlarning 9 turini uchratish mumkin. Ko'lda mavjud 13 turdagi qushlar Xalqaro "Qizil kitob"ga va 24 turi O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

Ko'l sohili floralarga ham juda boy bo'lib, o'simliklarning 47 turi mavjud, ularning 6 turi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, 16 turi esa, Markaziy Osiyo endemikalari hisoblanadi. Shuningdek, ko'l sohillari to'qayzorlar bilan o'ralgan bo'lib, u sayyohlarga zavq bag'ishlaydi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi xalqaro ahamiyatga ham ega bo'lib, 2008 yil Ramsar Konvensiyasi ro'yxatiga kiritilgan. Bu konvensiya 1971 yilning 2 fevralida Eronning Ramsar shahrida "Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo'lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq erlar to'g'risida"gi konvensiya nomi bilan qabul qilingan. Konvensiyaning vazifasi suvli va botqoqli hududlarni muhofaza qilishga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan [6;429-485]. Ko'lining xalqaro ahamiyatga ega ekanligi, ko'l ekoturistik mavqeini yanada oshishiga yordam beradi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlar qo'riqxonasi, buyurtma, milliy bog'lar ham ekoturistik resurslar tarkibiga kiradi. Ko'l havzasida xuddi shunday tabiiy, botqoq landshaftlar mavjud bo'lib, ular hozirda muhofaza etiladigan hududga aylantirilgan. 1977 yilda ko'lining Tuzkon ko'li qismida 63000 gektardan iborat bo'lgan Arnasoy qo'riqxonasi barpo qilingan. Bu qo'riqxonada, cho'l ekosistemasiga xos efemer-juzg'un, yantoq-efemer o'simliklar assosiatsiyasi keng tarqalgan va asosan, u erda juzg'un (*leucocladum*), iloq (*Physodes*), astrogal (*Astragalus*), yantoq (*Pseudalhagi*) kabi o'simlik turlari ko'p uchraydi. Undan tashqari, qo'riqxonasi to'qayzorlarida ondatra (*Ondatra zibethica*), bo'ri (*Canis lupus*), tulki (*Vulpes*), bo'rsiq (*Meles*), to'qay mushugi (*Feles chaus*) kabi

hayvonlarni va ko‘l akvatoriyasida sazan (*Cyphinus carpio*), som (*Silurus*), oq amur (*Ctenopharyngodon idella valen*), turkiston usachi (*Barbus capito*) va boshqa qimmatli baliq turlarini hamda qushlardan eshkak oyoqlilar (*Pelecaniformes*), uzunoyoqlilar (*Ciconiformes*), g‘ozsimonlar (*Anseriformes*), lochinsimonlar (*Falconiformes*), turnasimonlar (*Gruiformes*) oilasiga kiruvchi qushlarni uchratish mumkin.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi noyob landshaftlarida ba‘zi shunday hayvonlar mavjudki, hatto ular CITES - (Convention of International Trade in Endangered Species of wild fauna and flora) yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar turlari bilan savdo qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya ilovalariga kiritilgan. Bugungi kunda ko‘l atrofi hududlarida ekoturistik yo‘nalishlarida sayyohlarga turistik xizmat ko‘rsatish rivojlantirilmoqda. Bugungacha, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi atrof hududlarida ekoturizmning quyidagi yo‘nalishlari eng ko‘p rivojlantirilgan. Bularga baliq ovlash, suv havzalariga sayohat, ornitologik, safariy ekologik turizm yo‘nalishlarini aytishimiz mumkin. Undan tashqari sayyohlar ko‘l sohili bo‘yidagi zamonaviy kempinglar va milliy o‘tovlarda mazmunli hordiq chiqarishi, tuya va otda sayr qilishi, rekreatsiya-sohil bo‘yida dam olishi va sog‘liklarini tiklashlari mumkin bo‘ladi.

Demak, ko‘ldan ekoturistik maqsadlarda foydalanish eng avvalo tabiatni muhofaza qilish dasturlari me‘yoriga rioya etgan holda, ko‘l sohil bo‘yida dam olish, ekzotik tabiiy komponentlarini tomosha qilish, sog‘lomlashtirish, ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar o‘tkazish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, fauna va florasini muhofaza qilish, ularni saqlash, ko‘paytirishga ko‘maklashish ishlarini amalga oshirish mumkin. Undan tashqari, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi noyob landshaftlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish orqali, ko‘lda ekoturizm ravnaqini yanada oshirish mumkin:

- noyob hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan tanishish;
- kino, teleko‘rsatuv va foto tasvirlar olish, videoroliklar tayyorlash;
- ilmiy ekspeditsiyalar: geografik, botanik, zoologik, ekologik, gidrologik va boshqalar.

Aytib o‘tganimizdek, Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi atrofi hududlari ekotur resurslarga boy bo‘lishi bilan ular orasida noyob turlar, ekologik xavf ostida bo‘lgan tabiiy komponentlar uchraydi. Demak, bu komponentlardan maqsadli foydalanilar ekanmiz, eng avvalo, sayyohlar ekoturlardan foydalanganda mutaxassislar bilan birga bo‘lishlari shart hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ekoturistik imkoniyatlarga juda boy bo‘lib, rang-barang ekoturistik salohiyatidan kelib chiqib kelajakda quyidagi ko‘l ekoturlarini yanada rivojlantirish mumkin: 1) ilmiy ekotur, 2) ma‘naviy-ma‘rifiy ekoturi, 3) rekreatsiya ekoturi, 4) kemada sayr qilish ekoturi, 5) sport ekoturi, 6) otda va tuyada sayr qilish ekoturi, 7) ovchilik ekoturi va boshqalar.

Umuman olganda, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi havzasida ekologik turizm potentsiallarini yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ushbu salohiyat va imkoniyatlarni oshirishda jahonda ekoturizm taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz, noyob landshaftlarni muhofaza qilish, saqlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini ko‘paytirishga xizmat qilishdagi eng muhim yo‘nalish bu ekologik turizm hisoblanadi, lekin shuni aytish lozimki, ekoturizmga ko‘rsatilgan qonun-qoidalarga rioya qilmaslik aksincha, turizm ekologiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Shu kabi masalalarni bartaraf etishda birinchidan, ekologik turizm taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ikkinchidan, soha bo‘yicha yetakchi kadrlarni tayyorlash, uchinchidan, ularni chet ellardagi oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish hamda malakasini oshirish kabi ishlarni amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Douglas Pearce. *Tourism Today: A Geographical Analysis*. Second edition. Edinburg Gate. Harlow, 1997. P. 204.
2. Аббасов С.Б., Сабирова Н.Т. Международная научно-практическая конференция.- Т., 2017. –Б. 27-30.
3. Аббасов С.Б., Сабирова Н.Т. /Международная научно-практическая конференция.- Нукус. 2018. -Б. 99-102.
4. Walker K. & Weiler B. of *Ecotourism*, 2017. –P. 1-23. (Online) DOI: 10.1080/14724049.2016.1245736.
5. Mcgahey S. Ethics, obligations, and stakeholders of ecotourism marketing. // *Intellectual economics*. 2012, Vol. 6, No. 2(14), -P. 75–88
6. Skov H. et al. UN Convention on Wetlands (RAMSAR): Implications for Human Health. // *Encyclopedia of the Anthropocene*, 2018. –P. 479-4858.
7. Ceballos-Lascurian H. (1991) *Tourism, ecotourism, and protected areas. Ecotourism and Resource Conservation: A Collection of Papers*. -Madison, 1991. -Vol. 1. – pp. 24
8. Шамуратова Н.Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари. Дисс. Автореф. – Т., 2011. -23 б.
9. Ўзбекистон учун экспорт, импорт объектлари ҳисобланган хайвонлар ва ўсимликларни аниқлагич. – Т., 2016. -145 б.
10. Фуломов П. Инсон ва табиат. – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. -84 б.
11. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.
12. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND

SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.

13. Zumarad, A., Nazira, T., & Feruza, S. (2022). FEATURES OF GROWTH OF FUNGI OF THE GENUS CANDIDA ON THE NUTRITIONAL BASIS OF RICE BRAN. EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review (CRER), 10(3), 1-3.

14. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. *European Researcher. Series A*, (8-2), 48-57.

15. Аллаберганова, З. С., Самандарова, Б. С., & Болтаева, Ш. Р. (2019). Причины увеличения женщин с проблемой угрожающего выкидыша. *Авиценна*, (34), 10-11.

16. Абидова, З. (2023). HISTORICAL FORMATION AND ARCHITECTURAL STRUCTURE OF THE PILGRIMAGE PLACES OF THE KHORAZM OASIS. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 6(8).

17. <http://sgp.uz/base>

18. <http://eco.uz/uz/kutubkhona>